

"MEDEYA" TRAGEDIYASIDA FRAZEMALAR TAHLILI

Norsafarova Nilufar

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10087537>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, avvalo, Yevripidning "Medeya" tragediyasi haqida, shu bilan birga asarda juda katta ahamiyat kasb etgan iboralar, maqollar haqida so'z yuritiladi. Hamda 100 ga yaqin iboralar, o'nlab maqollar tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: Medeya, frazema, ibora, maqol, tragediya, mubolag'a, frazeologiya, maqol, o'xshatish.

ANALYSIS OF PHRASES IN THE TRAGEDY "MEDEA"

Abstract. This article, first of all, talks about the tragedy "Medea" by Euripides, and at the same time about the expressions and proverbs that are very important in the work. About 100 phrases and dozens of proverbs will be analyzed.

Key words: Medea, phrase, phrase, proverb, tragedy, exaggeration, phraseology, proverb, simile.

АНАЛИЗ ФРАЗЫЙ В ТРАГЕДИИ «МЕДЕЯ»

Аннотация. В этой статье, прежде всего, говорится о трагедии Еврипида «Медея», а вместе с тем и о выражениях и пословицах, которые очень важны в произведении. Будет проанализировано около 100 фраз и десятки пословиц.

Ключевые слова: Медея, словосочетание, словосочетание, пословица, трагедия, преувеличение, фразеология, пословица, сравнение.

Avvalo, "Medeya" tragediyasining qisqacha mazmuniga to'xtalib o'tamiz. Asarni rus tilidan Asqar Qosimov tarjima qilgan. Asardagi qatnashuvchilar, ya'ni bosh obrazlar Medeya, Yason, Kreont, Yasonning o'g'illari, enaga, chopar hisoblanadi. Asar janri tragediya bo'lib, tragediya adabiyotning dramatik tur janrlaridan biri hisoblanib fojia bilan tugaydigan sahna asarlariga nisbatan ishlatiladi.

Asarda Medeyaning turmush o'rtog'i Yason Medeya va bolalaridan voz kechib, Kreont degan shohning qiziga uylanmoqchi bo'ladi. Kreont esa Medeya mening qizimning hayotiga xavf solmasin, deb uni saroydan bolalari bilan birga haydashga buyruq beradi. Ayol esa bir kun qolishga izn so'raydi. Medeya o'sha bir kun ichida hammadan qasos olish uchun payt poylaydi. Yason bilan suhbatlashganda, yangi nikoh senga xurramlik olib kelmasin, deb xayrlashadi, ammo asar voqealari rivoji jarayonida o'zini unga xayrixoh qilib, kelinni, ya'ni shoh Kreontning qizini o'ldirish rejasini tuzadi. Yasonni yoniga chaqirib shunday deydi:

*Bunda bo'lgan mashmashaga avvalo uzr,
Tazarruim qabul ayla, Yason, muhabbat –
Bilasanmi, oramizda uzoq yashadi.
Qiziqqonlik qilgan bo'lsam sen to'g'ri tushun.
Shoh malomat qilayotir deb o'ylabman men,
Men, betavfiq, nega endi shaddodlik qildim?
Aslida bu betginamga ursalar agar*

*U betimni tutib bersam bo'larkan, axir
Erim taxtga chiqmoqda-ya? Bordi-yu erim
Shoh qiziga uylansa ham, bolalarimga
Orttirsa ham uka-singil, uning bu ishi—
Bizlar uchun... Qiziqqonlik hali shungami?
Nima bo'ldi o'zi senga, Medeya bonu?
Bu hammasi yo yaxshilik sari emasmi?
Yo bizlarda bola yo qmi? Bormi yurt, shahar?
Yo hammamiz birato'la quvg'indimizmi
Do'stu yordan chetda? Ana shularni o'ylab
Xomcho't qilib, angladimki, aqldan emas
Qahru itob qilganlarim. Men endi dildan
Seni olqab g'ururlandim. Burch va kamtarlik
Seni, Yason, shu ko'ylarga solgan aniq.
Sen qaytadan uylanmoqni ixtiyor etib
Reja tuzding. Xayolimga o'shanda mening
Senga loyiq yo'l-yo'riqlar berish kelmabdi,
Kelinchakning xizmatlarin qilsam bo'lar-ku!
Mag'rurlansam oliy nasab kundoshim bilan.
Bo'ladi-ku biz hammamiz xotinmiz asli—*

Sizlarga sal ozor berdik afu etgaysiz [Yevripid. Medeya. Fojia. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 64-65-betlar].

Shunday deya Medeya Yasonning ishonchiga kirib, uning xotiniga zaharlangan sarpo va tillaqosh sovg'a qiladi. Sovg'alarni bolalari orqali jo'natadi:

*Xotiningga bolalardin berib yuborgum,
Men bilaman jahonda yo'q bu kabi narsa.
To'xta... Hozir, joriyalar, bittangiz harir
Sarpo bilan tillaqoshni olib kelingiz.*

Bolalariga:

*Eng muhimi diqqat qiling bu kiyim-boshni
O'zi olsin, qani bo'ling, jadallang tezroq.
Javobini zor-intizor kutajakman men
Xayrli bo'lsin shak-shubhasiz, xudo yor bo'lsin.*

Bu voqeadan so'ng Medeya shoh qiziga zaharlangan sarpo va tillaqoshni berib yuboradi. Buni taqqan kelinchak rangi bo'zdek oqarib, yiqiladi. Qazo qiladi. Bundayin musibatga chidolmay shoh Kreont ham jon beradi. Medeya esa o'g'illarimni dushmanlarim o'ldirmasin, deya o'z qo'llari bilan o'ldiradi. Jasadni Yasonga ko'rsatishdan bosh tortib, aravaga o'tirib, ko'zdan g'oyib bo'ladi...

Qanchalar mudhish holat. O'z oilasiga xiyonat qilgan erkak va hamda buni ko'tara olmay kundoshi va bolalarini o'ldirgan ona (Yason ta'biri bilan aytganda, ilon, urg'ochi arslon) obrazi. Gunohkorlar qo'lida gunohsiz murg'ak ikkita o'g'ilning uvol ketishi...

Asarning mazmunini yana ham ochib berish uchun yozuvchi hozirgi kunda ham keng foydalanilayotgan maqollar, iboralardan unumli foydalangan. Har bir qahramon tilidan aytilgan hikmatlar, iboralar asar g'oyasini kengroq ochib berishga xizmat qilgan. Tragediyada qo'llanilgan ayrim frazemalarni tahlil qilishdan oldin aslida frazemalarning nima ekanligi haqida bilib olamiz.

Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi.

Frazema ko'chma ma'noli turg'un konstruksiyadir. Masalan, zo'raymoq (leksema) –avj olmoq (frazema), qiynalmoq (leksema) – azob chekmoq (frazema) kabi. Demak, frazema ham leksema kabi lug'aviy birlik sanaladi, ammo o'zining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan leksemadan farqlanadi [H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent "Talqin"–2005. 216-bet].

Frazeologiya o'z ichiga iboralar, aforizmlar, maqollarni qamrab oladi. Bunday birliklar til paydo bo'lganda vujudga kelib, u bilan birga rivojlanib, sayqallanib kelmoqda. "Medeya" tragediyasida ham ko'plab frazemalar mavjud. Ulardan ayrimlarini quyida keltirib o'tamiz:

- Ham telbaday ko'ngil qo'yib alp Yasonga (8-bet), ya'ni bu yerda **ko'ngil qo'ymoq** – yaxshi ko'rmoq iborasi mavjud.

- El ko'ziga ul boyaqish xush ko'rinsa-da

Xush ko'rinmoq– yoqmoq, yaxshi ko'rinmoq.

- **Bag'ri butun** kam topilur, ushbu dunyoda.

Bag'ri butun, ya'ni g'ami yo'q, kamchiliksiz inson.

- Yig'ishtirib qo'ymoqdalar bordi-keldini.

Yig'ishtirib qo'ymoq–butunlay to'xtatib qo'ymoq, to'xtatmoq.

- Barcha noxush ishlarni dildan o'tkazar

Dildan o'tkazmoq– qissa muddat, on ichida o'ylamoq, ko'ngildan o'tkazmoq.

- Erini deb boy bergandi o'z diyorini.

Boy bermoq– qo'ldan bermoq, ya'ni yo'qotmoq.

- **Sirtiga suv yuqtirmagan kishiday** bo'ldim, ya'ni asarda suvdan quruq chiqadi iborasi bilan sinonimlik yuzaga kelgan.

- Gar qolishi vojib ersa qozon yopig'liq, ya'niki bu mavzu haqida boshqa umuman so'z ochilmasin, **yopiq qozon yopiqligicha qolsin** mazmunida.

- **Ko'ngil tubida saqlamoq** – hech kimga aytmalik, sir saqlamoq.

- **Dunyodan toq o'tmoq**– uylanmay yoki turmushga chiqmay hayotdan o'tish.

- **Ko'z ilg'amas**– kichkinagina, arang ko'rinadigan darajada mayda.

- Ko'rarga ko'zim yo'q tiriklikni

Ko'rishga ko'zi yo'q, ya'ni umuman ko'rgisi kelmaslik.

- Ko'z yoshingni selob aylama

Ko'z yoshi selob bo'lmoq– ko'p yig'lagani sababli ko'z yoshining selday oqishi.

- **Peshvoz chiqmoq** – kutib olmoq.

- **Bor san'atini ishga solmoq**– barcha usullardan foydalanib, jon-jahdi bilan harakat qilmoq.

- **Xush ko'rmaslik**–yomon ko'rish, kimningdir yoqmasligi.

• **Bir yostiqa bosh qo'ymoq**– Biror kishi bilan turmush qurmoq; er-xotin bo'lmoq [E.Begmatov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov, T.Mirzayev, N.To'xliyev, E.Umarov, D. Xudoyberganova, A.Hojiyev. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent –2020. 49-bet]. Iboraning so'zdagi muqobili sifatida yostiqdosh so'zini keltirishimiz mumkin.

• Jonga tegsa oilasi erkakka ne g'am

Jonga tegmoq – bezor bo'lmoq.

• **Boshqa yoqqa ko'z suzgancha arqon uzarlar**–asarda boshqa ayolga uylanib Medeyadan kechmoq ma'nosida.

• Bizdan esa qo'l siltabon qiyo boqmaslar

Qiyo boqmaslik– umuman qaramaslik, e'tibor bermaslik.

• **Qorasini ham ko'rmaslik**– umuman ko'rmaslik.

• **Izn bermoq**–ruxsat bermoq.

• **To'rt muchasi sog'**–butun tanasi sog'lom.

• **Nobud bo'lmoq** – yo'qolmoq, o'lmoq.

• **Kalaka bo'lmoq**–masxara qilib, ustidan kulmoq.

• Vale barcha mehnatlarim chippakka chiqdi

Chippakka chiqmoq– harakatlari besamar ketmoq.

• **Tirnoqqa zor**–farzandi yo'q, befarzand.

• **Ixtiyori qo'lida bo'lmoq** –o'zi istaganday yashamoq.

• **Og'iz ochmaslik** – umuman gapirmaslik.

• **Ona bo'lmoq** – farzandli bo'lmoq.

Bundan tashqari asarda xalqimiz azal-azaldan qo'llab keladigan maqollardan ham keng foydalanilgan:

✓ *So'nggi pushaymon o'zingga dushman (26-b);*

✓ *El og'ziga elak tutib bo'lmas (27-b);*

✓ *Quruq gap bilan ish bitmas;*

✓ *Osmon yiroq, zamin qattiq (67-b);*

✓ *Bolali uy – bozor (75-b);*

✓ *Bir tovuqqa ham suv, ham don (75-b).*

Bu asar hozirgi kunda ham kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinayotgan, ibratli so'zlarga, maqollar va iboralarga eng boy tragediya namunasi hisoblanadi. Asarni o'qish jarayonida o'quvchida hech qanday tushunarsizlik kuzatilmaydi. Negaki bu asar barchaga tushunarli, sevib mutolaa qilinadigan, hayotda ham juda ko'p voqealarga nisbatan ishlatishimiz mumkin bo'lgan maqollarga boydir.

REFERENCES

1. E.Begmatov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov, T.Mirzayev, N.To'xliyev, E.Umarov, D. Xudoyberganova, A.Hojiyev. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent –2020.
2. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent "Talqin"–2005.

3. Yevripid. Medeya. Fojia. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
4. Kutubxona.com
5. www.ziyouz.com kutubxonasi